



## O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA SO'Z TURKUMLARI QIYOSI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi 1-  
bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8004468>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> May 2023  
Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2023  
Online: 03<sup>rd</sup> June 2023

### KEY WORDS

Ot, sifat, son, olmosh, fe'l,  
ravish, modal so'zlar,  
ko'makchi, bog'lovchi, yuklama,  
undovlar va taqlid so'zlar.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillaridagi  
so'z turkumlari, ularning qiyosi, o'xshash va farqli  
tomonlari tadqiq etildi.

Har bir tilda so'zlar ma'nosiga va grammatik xususiyatiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratiladi, ya'ni turkumlarga bo'linadi. So'zlarni turkumlarga ajratish o'zbek va qoraqalpoq tillarida rus tiliga nisbatan qiyin, chunki o'zbek va qoraqalpoq tillarida morfologik ko'rsatkichlar rus tilidagi darajada ko'p emas<sup>1</sup>. Masalan o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi *ish(jumis)*, *tog'(taw)*, *tosh(tas)*, *uy(u'y)*, *nok(almurt)*, *olma(alma)* kabi so'zlar *oq(aq)*, *qizil(qizil)*, *qora(qara)*, *katta(u'lken)*, *kichik(kishkene)* kabi so'zlardan morfologik ko'rsatkichlari bilan ajralib turmaydi. Demak bunday so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning morfologik ko'rsatkichlarinigina emas, balki asosan ularning ma'nolariga e'tibor berish lozim.

Rus tilida esa ot va sifat morfologik ko'rsatkichi bilan odatda yaqqol ajralib turadi: *груша, большой, весёлый* kabi.

O'zbek tilidagi so'zlarni dastlabki shakllaridanoq qaysi turkumga mansub ekanligini aniqlash, shuningdek, mustaqil holda qo'llash mumkin. Masalan, ot, oq, ol, oz, oh kabi bir xil konstruksiyadan iborat bo'lgan so'zlar ularning ma'nosiga qarab ot, sifat, fe'l, ravish, undov kabi ma'lum turkumga kiritiladi. Shuning uchun ayrim manbalarda rus tilidagi so'zlar lug'aviy-semantik xususiyatlari, morfologik belgilari va sintaktik vazifalariga ko'ra turkumlarga ajratilsa, o'zbekcha so'zlarni turkumlarga ajratishda, asosan, ularning semantik va sintaktik belgilari ko'zda tutiladi, degan fikrlarni uchratish mumkin. Biroq o'zbek tilida yasama so'zlarni tasniflashda ularning nafaqat semantik, balki morfologik belgilari ham muhimdir. Masalan, -chi, -kash, -dosh, -zor kabi qo'shimchalarni olgan so'zlarni ot turkumiga, -li, -siz qo'shimchali so'zlarni sifat turkumiga yoki tarkibida -la qo'shimchasi bor bo'lgan

<sup>1</sup> Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. Toshkent, 1993. – B. 23.



so'zlarni fe'l turkumiga kiritishda ana shu qo'shimchalarning mavjudligi ham e'tibordan chetda qolmaydi<sup>2</sup>.

O'zbek tilida so'zlar quyidagi 11ta turkumga ajratilgan. Ular: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, modal so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undovlar va taqlid so'zlar.

Rus tilidagi so'zlar yuqorida aytib o'tilgan, ya'ni so'zning morfologik belgisi va ma'nosiga qarab, 10 ta (ba'zi manbalarda 12ta +категория состояние, звукоподражательные слова) so'z turkumiga bo'linadi. Ular: имена существительные, имена прилагательные, имена числительные, местоимения, глаголы, наречие, предлоги, союзы, частицы, маждометия.

Qoraqalpoq tilida so'zlarni so'z turkumlariga ajratganda asosiy 3 kriteriyaga tayaniladi. Bular 1) so'zning asosiy grammatik ma'nosi, 2) uning morfologik belgilari (grammatik kategoriyalar va so'z o'zgarish tizimi), 3) asosiy sintaksislik xizmati. Shunday belgilariga qarab qoraqalpoq tilidagi so'zlar 12ta so'z turkumlariga ajratilgan. Ular: atliq, kelbetlik, sanliq, almasiq, feyil, ra'wish, tirkewish, da'neker, janapay, modal so'zlar, tan'laq ha'm eliklewishler<sup>3</sup>.

Endi 3ta tildagi so'z turkumlari orasidagi farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz.

1. Qoraqalpoq va o'zbek tillarida "категория состояние" (belgisi bir holni bildiruvchi o'zgarmaydigan so'zlar) yo'q va uning tizimiga xos emas.

2. Rus tilidagi predloglar so'zning oldida keladi, qoraqalpoq tilidagi tirkewishler so'zdan keyin qo'llaniladigan o'zbek tilida ko'makchi so'z bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, boshqa so'z turkumlari ham tashqaridan bir-biriga o'xshashdek ko'ringani bilan, uni o'rganish jarayonida bir-birdan ancha farq qilinishini anglab yetamiz. Masalan: har 3 tilda ham fe'llar egalik kategoriyasida turlanadi. Rus tilida ot, sifat, son va olmosh kelishik kategoriyasida turlanadi, o'zbek va qoraqalpoq tillarida esa faqat ot kelishik kategoriyasida turlanadi.

O'zbek tilida sifatda ham, ravishda ham shakl o'zgarishi yo'q, shu sababli sifat bilan ravishni farqlashda boshqa belgi-xususiyatlariga suyanib ish tutish lozim bo'ladi. Ba'zi manbalarda esa sifat va ravishni sintaktik mezon asosida ajratish taklif qilinadi. Bu yo'l ijobiy natijaga olib kelmaydi. Chunki, aynan bir so'z(masalan: yaxshi so'zi) sifatlovchi bo'lib kelsa, sifat deb, hol bo'lib kelsa, ravish deb atalishi, demak ikki turkumga mansub so'zlar deb qaralishi lozim bo'ladi. Tabiiyki, hech kim o'zbek tilida 2ta yaxshi so'zi bor ekan demaydi. Demak, yaxshi so'zi bitta, uni biz sifat so'z turkumiga mansub deb hisoblaymiz<sup>4</sup>.

Rus tilida so'z turkumlari o'zbek va qoraqalpoq tillariga qaraganda yaqqol farqlanib turadi. Masalan, rus tilida sifat - o'zgaruvchi turkum, uning o'ziga xos tugallanmalar tizimi bor, ravish esa - o'zgarmaydigan turkum, lekin baribir rus tilida ravishning ham o'ziga xos grammatik ko'rsatkichi bor. Natijada bu ikki turkum so'zlari bir-biridan yaqqol farqlanib turadi.

Qoraqalpoq tilida sifat, son, ravish va ba'zi olmoshlar o'z ma'nosida kelganda o'zgarmaydi.

<sup>2</sup> file:///C:/Users/User/Downloads/toxliyeva-m.s.-ozbek-va-rus-tillaridagi-ot-soz-turkumiga-xos-grammatik-shakllarning-qiyosiy-tipologiyasi%20(2).pdf

<sup>3</sup> Bekbergenov A. Rus ha'm qoraqalpoq tillerinin' salistirmali grammatikasi. No'kis. 1995. – B.32.

<sup>4</sup> Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. Toshkent, 1993. – B. 23.



Rus tilida sifat va ravish o'zining formasi va sintaktik tuzilishi bo'yicha bir biridan oson ajratiladi: интересная книга – sifat, интересно рассказывает – fe'l kabi. Sifat so'zlar ot so'zlarni aniqlaydi, ravishlar esa fe'ning harakatini aniqlaydi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida sifatlar asosan otni, ravishlar esa fe'lni aniqlab kelsa, ba'zi hollarda sifat fe'lni (yaxshi o'qiydi – jaqsı oqiydi), ravishlar esa otni (ruscha kitob – russha kitap, tez yordam – tez ja'rdem) kabilarni aniqlab kelishi holatlari ham kuzatiladi<sup>5</sup>. Shuning uchun bu 2 so'z turkumini ajratish ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har 3 tilda so'z turkumlari barcha klassifikatsiya prinsiplari bo'yicha bir-biriga o'xshash bo'lgani bilan, har bir tilde ular o'ziga xos bo'lgan grammatik o'zgarishlarga, jumladan: grammatik kategoriyalar, so'z o'zgarish tizimiga ega hisoblanadi. Bu 3 tildagi asosiy farq esa, o'zbek va qoraqalpoq tilidagi ko'makchilar bilan rus tilidagi predloglar(old ko'makchilar) orasida bo'lib, ularning birinchisi o'zi bog'langan so'zdan keyin, ikkinchisi esa o'zi bog'langan so'zdan oldin kelishi bilan farqlanadi. Asli chuqurroq mulohaza yuritsak, semantik, morfologik, sintaktik mezonlar orasida eng keng qamrovlisi sintaktik mezon hisoblanadi. Chunki bu mezonda leksik ma'no emas, balki shu leksik ma'no asosida mavjud bo'ladigan turkumlik ma'nosi nazarda tutilyapti. Bu o'z navbatida o'zbek va rus tillarini, rus va qoraqalpoq tillarini qiyoslab o'rganishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

### References:

1. Azizov O va boshqalar O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965.
2. Bekbergenov A. Rus ha'm qaraqalpaq tillerinin' salıstırmalı grammatikasi. No'kis. 1995.
3. Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. Toshkent, 1993.

<sup>5</sup> Bekbergenov A. Rus ha'm qaraqalpaq tillerinin' salıstırmalı grammatikasi. No'kis. 1995. – B.33.